



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K: 616.34-002.1-022:614.4

O'TKIR ICHAK INFEKTSIYALARINING ETIOLOGIK STRUKTURASI VA EPIDEMIOLOGIK JARAYONLARINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI



Aknazarova Dilduza Baxtiyarovna

Urganch davlat tibbiyot instituti Jamoat salomatligi va Umumiy
gigiyena kafedrası katta o'qtuvchisi, PhD

Urganch sh., O'zbekiston

aknazarovadilfuza442@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-0600-1976>

Tel:(88) 221 23 73

Annotatsiya Maqolada o'tkir ichak infeksiyalarining (O'II) zamonaviy bosqichdagi kechish xususiyatlari, qo'zg'atuvchilarning turlararo o'zgarishi va epidemiologik jarayonning dinamikasi tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot zamonaviy infektologiyaning dolzarb muammolaridan biri — o'tkir ichak infeksiyalari (O'II) etiologik strukturasining transformatsiyasi va epidemiologik jarayonning o'zgaruvchan dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan. So'nggi o'n yillikda O'II kechishida kuzatilayotgan klinik-epidemiologik xususiyatlar, xususan, qo'zg'atuvchilarning turlararo almashinuvi va patogenlar orasidagi o'zaro nisbatning o'zgarishi va polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usulining tashxisdagi sezuvchanligi va o'ziga xosligi bakteriologik usullar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar virus-bakterial assotsiatsiyalarning ortib borayotganini va tashxislash algoritmini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalari amaldagi tashxislash algoritmlarini modernizatsiya qilish, epidemiologik monitoring tizimiga molekulyar-genetik usullarni keng joriy etish va asossiz etiotrop terapiyaning oldini olish zarurligini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Olingan ma'lumotlar sog'liqni saqlash tizimida O'II profilaktikasi va nazorati samaradorligini oshirish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'tkir ichak infeksiyalari, rotavirus, PZR tashxis, epidemiologik monitoring, antibiotikorezistentlik, bakteriologik ekish.

ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ОСТРЫХ КИШЕЧНЫХ ИНФЕКЦИЙ И СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Акназарова Дилфуза Бахтияровна

Ургенский государственный медицинский институт, г. Ургенч, Узбекистан

Аннотация: В статье исследованы особенности течения острых кишечных инфекций (ОКИ) на современном этапе, межвидовые изменения возбудителей и динамика эпидемиологического процесса. Данное исследование посвящено одной из актуальных проблем современной инфектологии — трансформации этиологической структуры острых кишечных инфекций и изменчивой динамике эпидемиологического процесса. За последнее десятилетие проанализированы клинико-эпидемиологические особенности течения ОКИ, в



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

частности межвидовая смена возбудителей и изменение их соотношения, а также проведён сравнительный анализ чувствительности и специфичности метода полимеразной цепной реакции (ПЦР) с бактериологическими методами диагностики. Результаты свидетельствуют о нарастающей роли вирусно-бактериальных ассоциаций и необходимости модернизации алгоритмов диагностики. Выводы исследования научно обосновывают необходимость совершенствования существующих диагностических алгоритмов, широкого внедрения молекулярно-генетических методов в систему эпидемиологического мониторинга и предотвращения необоснованной этиотропной терапии. Полученные данные могут служить теоретической и практической основой для повышения эффективности профилактики и контроля острых кишечных инфекций в системе здравоохранения.

Ключевые слова: острые кишечные инфекции (ОКИ), ротавирус, ПЦР-диагностика, эпидемиологический мониторинг, антибиотикорезистентность, бактериологический посев.

ETIOLOGICAL STRUCTURE OF ACUTE INTESTINAL INFECTIONS AND MODERN FEATURES OF EPIDEMIOLOGICAL PROCESSES

Aknazarova Dilduza Bakhtiyarovna

Urgench State Medical Institute, Urgench, Uzbekistan

Abstract: This article examines the clinical course of acute intestinal infections (AII) at the present stage, interspecies variations of pathogens, and the dynamics of the epidemiological process. The study addresses one of the pressing issues in modern infectology—the transformation of the etiological structure of acute intestinal infections and the evolving dynamics of the epidemiological process. Over the past decade, the clinical and epidemiological characteristics of AII have been analyzed, with particular attention to the interspecies shift of pathogens and changes in their distribution. A comparative analysis of the sensitivity and specificity of the polymerase chain reaction (PCR) method and conventional bacteriological diagnostic methods was also conducted. The results indicate an increasing prevalence of viral–bacterial associations and highlight the need to modernize diagnostic algorithms. The findings substantiate the necessity of improving existing diagnostic approaches, expanding the implementation of molecular genetic methods in epidemiological surveillance systems, and preventing unjustified etiotropic therapy. The obtained data may serve as a theoretical and practical basis for improving the effectiveness of prevention and control of acute intestinal infections within the healthcare system.

Keywords: acute intestinal infections (AII), rotavirus, PCR diagnostics, epidemiological monitoring, antibiotic resistance, bacteriological culture.

KIRISH: O'tkir ichak infeksiyalari (O'II) hozirgi kunda global sog'liqni saqlash tizimining eng murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda, bolalar va kattalar o'rtasida kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 2 milliarddan ortiq kishi ushbu kasallik bilan og'riydi. Infektsion patologiyalar ichida O'II tarqalishi bo'yicha o'tkir respirator virusli infeksiyalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi migratsiyasining ortishi va oziq-ovqat mahsulotlarining global aylanishi epidemiologik zanjirning yangi



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

xususiyatlarini shakllantirdi. Zamonaviy bosqichda O'II nafaqat tibbiy, balki jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi, chunki u mehnat qobiliyatining vaqtincha yo'qolishi va bolalar o'rtasida asoratlar xavfining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. So'nggi o'n yillikda O'zbekiston va dunyo miqyosida ushbu kasalliklarning epidemiologik manzarasida tub burilishlar kuzatildi. Ilgari ichak infeksiyalarining asosiy qismini shigella va salmonella kabi bakterial agentlar tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda virusli diarreyalar (rotavirus, norovirus, adenovirus) ulushi 60-70% gacha yetmoqda. Shu bilan birga, patogenlarning turlararo o'zgarishi natijasida shifoxona ichi infeksiyalari (nizokomial) va miks-infeksiyalarining (virus-bakterial assotsiatsiyalar) ko'payishi kasallikning klinik kechishini og'irlashtirib, an'anaviy davolash usullari samarasizligiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, antibiotiklarning nazoratsiz qo'llanilishi oqibatida shakllangan antibiotikorezistent shtammlar davolash samaradorligini pasaytirmoqda. Ko'plab tadqiqotlar o'tkazilganiga qaramay, qo'zg'atuvchilarning antibiotiklarga va dezinfektsiyalovchi vositalarga chidamliligi (rezistentligi) masalasi hamon ochiq qolmoqda. Ayniqsa, molekulyar-genetik tashxis usullarining (PZR) amaliyotga keng joriy etilishi ilgari "noma'lum etiologiyali diareya" deb yuritilgan holatlarning aksariyati aslida virusli yoki kam uchraydigan bakterial agentlar tomonidan qo'zg'atilishini isbotladi. O'tkir ichak infeksiyalarining sababi mikroorganizmlarning bir nechta guruhlari: bakteriyalar, viruslar va protozoalarning organizmga turli yo'llar bilan kirib qolishi oqibati bo'lishi mumkin.

Asosiy yuqish yo'llari:

-maishiy-alloqa: ifloslangan uy-ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar, so'rg'ich, iflos qo'llar orqali

-oziq-ovqat: ovqatlanganda, yetarli darajada qayta ishlanmagan, sifatsiz oziq-ovqat iste'moli orqali

-suv: qaynatilmagan suv ichish, ochiq suvda suzish

Kasallik qo'zg'atuvchilarining odam organizmiga tushib, toki kasallikning ilk alomatlari paydo bo'lgunicha ma'lum bir vaqt o'tadi. Bu davr belgilsiz kechadi va uni kasallikning yashirin davri deyiladi. O'tkir yuqumli ichak kasalliklarida bu davr bir necha soatdan 21 kungacha davom etadi. Salmonellyoz kasalligida yashirin davr 6 soatdan 2 kungacha, ichburug' kasalligida 2 kundan 7 kungacha, qorin tifida 7 kundan 21 kungacha va virusli gepatitning "A" turida 7 kundan 35 kungacha davom etadi. Bu davr ayrim holatlarda qisqarishi va cho'zilishi mumkin.

Sog'lom odamning tanasiga ichak infeksiyalari suv yoki iflos qo'llar bilan birga og'iz orqali kiradi. Misol uchun, agar siz qaynatilmagan sut ichsangiz, dizenteriya boshlanishi mumkin. Mikroblar tanaga kirgandan so'ng kasallik 6-48 soatdan keyin boshlanadi. Infeksiyaning organizmga kirish eshigi va asosiy ko'payish joyi – oshqozon-ichak trakti hisoblanadi. Isitma, zaiflik, ishtahani yo'qolishi, diareya, qusish, qorin og'rig'i kabi belgilari kasallik yuzaga kelganidan darak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: So'nggi yillardagi ilmiy izlanishlar o'tkir ichak infeksiyalari (O'II) etiologiyasida virusli agentlarning, xususan, rotavirus va noroviruslarning ulushi keskin ortganligini ko'rsatmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, an'anaviy bakteriologik usullar ko'pincha infeksiyaning asl sababchisini aniqlashda 30-40% gacha samaradorlik ko'rsatadi, xolos. Bu esa empirik antibiotikoterapiyaning asossiz qo'llanilishiga va antibiotikorezistent shtammlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy molekulyar-genetik usullar, xususan, PZR-multipleks texnologiyasi bir vaqtning o'zida ham bakterial, ham virusli patogenlarni yuqori sezuvchanlik bilan aniqlash imkonini berib, diagnostika sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tadqiqot ishi **2024–2026 yillar** oralig'ida



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

shifoxonaning yuqumli kasalliklar bo'limiga o'rta og'ir va og'ir darajadagi gastroenterit hamda enterokolit sindromlari bilan hospitalizatsiya qilingan **120 nafar bemorda** o'tkazildi. Tadqiqotga kiritish mezonlari sifatida tana haroratining ko'tarilishi, intoksikatsiya belgilari va sutkasiga 5-10 martadan ortiq davom etuvchi diareya holatlari olindi. Klinik material sifatida bemorlarning koprofiltratlari (najas namunalari) va immunologik ko'rsatkichlarni aniqlash uchun venoz qon namunalari tadqiqot ob'ekti sifatida tanlandi.

Bemorlar ikkita reprezentativ guruhga ajratildi:

Asosiy guruh (n=60): Zamonaviy molekulyar-genetik usul (PZR-multipleks) qo'llanilib, bir vaqtning o'zida 8 ta eng keng tarqalgan patogenlarga (*Salmonella* spp., *Shigella* spp., *Campylobacter* spp., Rotavirus A, Norovirus GII va boshqalar) tekshirildi.

Nazorat guruhi (n=60): Standart bakteriologik ekish va serologik (RNGA) usullari qo'llanildi.

NATIJALAR VA STATISTIK TAHLIL: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bakteriologik usulning diagnostik samaradorligi (sensitivity) pastligicha qolmoqda. Nazorat guruhida qo'zg'atuvchi faqat 19 nafar (31.6%) bemorda aniqlandi. Aksincha, asosiy guruhda PZR-multipleks usuli qo'llanilishi natijasida 51 nafar (85%) bemorda etiologik omil aniqlandi. Bu bakteriologik usulga nisbatan 2.7 barobar yuqori samaradorlikni anglatadi. PZR usulining ustunligi, ayniqsa, kulturalanmaydigan va "talabchan" mikroorganizmlarni (masalan, *Campylobacter* spp.) hamda virusli agentlarni aniqlashda yaqqol namoyon bo'ldi.

Qo'zg'atuvchilarning taqsimlanishi quyidagicha ko'rinish oldi:

1. Virusli etiologiya: Asosiy guruhda virusli agentlar yetakchi o'rinni egalladi. Xususan, Rotavirus A umumiy strukturaning 45% qismini tashkil etdi. Shunisi ahamiyatliki, kasallanishning mavsumiy dinamikasi o'rganilganda, qishki va bahorgi oylarda rotavirusli gastroenteritlar ulushi 70% gacha ko'tarilishi aniqlandi, bu esa ushbu davrda virusli skriningni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.
2. Bakterial etiologiya: Bakterial infeksiyalar orasida *Salmonella typhimurium* (15%) va *Campylobacter* spp. (12%) yetakchilik qildi. Ta'kidlash joizki, *Campylobacter* infeksiyasi ko'pincha bakteriologik usulda "manfiy" natija bergan bo'lsa-da, PZR usulida o'zining genetik markerlari orqali tasdiqlandi
3. Aralash (Mikst) infeksiyalar: Bemorlarning 18 foizida virus va bakteriyalarning kombinatsiyasi (masalan, Rotavirus + *Salmonella*) aniqlandi, bu esa klinik manzaraning og'ir kechishiga sabab bo'ldi. SHuningdek, PZR usuli yordamida tashxis qo'yish vaqti o'rtacha 4-6 soatni tashkil etdi, vaholanki bakteriologik xulosa uchun 72 soatdan 120 soatgacha vaqt talab etildi.

MUHOKAMA: Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, o'tkir ichak infeksiyalari (O'II) diagnostikasida an'anaviy bakteriologik usullarga tayanish zamonaviy epidemiologik talablarga to'liq javob bermaydi. Nazorat guruhida etiologik verifikatsiyaning past ko'rsatkichi (31.6%) klassik mikrobiologiyaning "metodologik cheklanganligi" bilan izohlanadi. Bu, birinchidan, qo'zg'atuvchilarning kulturalanmaydigan shakllari mavjudligi, ikkinchidan, virusli agentlarning (rotavirus, norovirus) bakterial oziq muhitlarida o'smasligi bilan bog'liq. PZR-multipleks usulining yuqori samaradorligi (85%) esa O'II diagnostikasida molekulyar-genetik skriningni "birinchi chiziq" testi sifatida qo'llash zarurligini fundamental jihatdan isbotlaydi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'II tashxislashda faqat klassik mikrobiologiyaga tayanish ko'p hollarda "noaniq etiologiyali gastroenterit" tashxisi ko'payishiga olib keladi. PZR usulining yuqori sezuvchanligi kasallikning ilk soatlaridayoq maqsadli terapiyani boshlash



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

imkonini beradi. Muhokama qilinayotgan yana bir muhim jihat -antibiotikorezistentlik. Tadqiqot davomida ajratilgan salmonella shtammlarining 60% dan ortig'i ampitsillin va tsefalosporinlarning III avlodiga nisbatan past sezuvchanlik ko'rsatdi. Bu esa O'II davolashda etiotrop terapiyani faqat laborator tasdiqdan so'ng qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Virusli diareyalarda antibiotiklarning samarasizligi va ichak disbiozini chuqurlashtirishi ilmiy asoslandi. Tadqiqotda aniqlangan virusli diareyalar ulushining yuqoriligi (45-70%) va miks-infektsiyalar (18%) muammosi davolash taktikasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi. Virusli etiologiyali O'II holatlarida antibiotiklarning asossiz tayinlanishi nafaqat terapevtik foyda keltirmaydi, balki quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi.

XULOSA

- 1.Hozirgi bosqichda O'II etiologiyasida viruslarning roli (45-50%) bakterial agentlardan ustunlik qilmoqda, bu esa epidemiologik nazorat tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.
- 1.PZR tashxis usuli O'II ni aniqlashda "oltin standart" sifatida bakteriologik usuldan 2.7 baravar samaraliroq ekanligi isbotlandi.
- 2.Mikst-infektsiyalarning yuqori ulushi bemorlarni gospitalizatsiya qilishda ularni qo'zg'atuvchi turiga qarab differentsial seksatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.
- 3.Mahalliy sog'liqni saqlash protokollariga PZR-skriningni majburiy tashxislash bosqichi sifatida kiritish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Azizov A.A. "Infectious Diseases in Central Asia". — Tashkent: Abu Ali ibn Sino, 2024. — P. 112-125.
- 2.Glass R.I., et al. "Gastroenteritis Viruses: An Overview". — Medical Virology, 2023. Vol. 14, pp. 45-58.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yildagi "O'tkir ichak infektsiyalarini davolash bo'yicha klinik bayonnomalari".